



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG‘I**

2023 yil “2” noyabr 00649-edo - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini
tashkil etish bo‘limi nizomini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli va 2021-yil 9-sentyabrdagi “Respublika oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli Farmonlari hamda 2019-yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 4433-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 222-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 8-avgustdagi “Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida”gi 349-son buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda - TTA) Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi Nizomi mazkur buyruq ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.
2. TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o‘qituvchilari hamda bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar mazkur Nizom bilan tanishtirilsin.
3. Mazkur buyruqning ijrosini ta‘minlash Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:
F.Abdumalikova

Bo'lim boshlig'i

Kelishildi:

F.Azizova **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor**

T.Bobomuratov **Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha prorektor**

F.Azizova **Boshqarma boshlig'i**

S.Dustmuradov **Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor**

N.Ismatullaeva **Bo'lim boshlig'i**

Sh.Islomqulova **Yuriskonsult**